

# “BONUSLARNI IKKI KARRAGA ORTTIRISH” Aksiyasi Qoidalari

**8 iyul 2022**

“Bonuslarni ikki karraga orttirish” Aksiyasining mazkur ta’rifi (keyinchalik – Aksiya), Humans loyallik Dasturining ajralmas qismi sanaladi va shu bilan birga “Humans” MChJ (100047, O’zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mahtumquli ko’chasi, 2B-uy, INN 306624856)ning muayyan bo’limgan shaxslar uchun taklifidir.

## **1. Aksiya to’g’risida ma’lumot**

- 1.1.** Mazkur Qoidalarning matnida qo’llaniladigan katta harf bilan yozilgan so’zlar atamalar hisoblanadi. Agar mazkur Qoidalarda boshqa ma’no berilmagan bo’lsa, Humans aloqa xizmatlarini ko’rsatish Shartlari va [www.humans.uz](http://www.humans.uz) Saytida joylashtirilgan Humans Loyallik Dasturi Qoidalarda atamalar ma’nosи keltirib o’tilgan.
- 1.2.** Kod – Humans tarafidan Jo’natuvchi qayd etgan Oluvchi telefon raqamiga shakllantirilgan jo’natiladigan raqamli kod demak.
- 1.3.** Jo’natuvchi – Humansning loyallik dasturining amaldagi Ishtirokchisi, bu atama Humans loyallik dasturi Qoidalarda ta’riflangan va uning Humans loyallik Dasturida ishtiroki to’xtatilmagan yoki tugatilmagan.
- 1.4.** Oluvchi Aksiyaga oid mazkur qoidalarning 2.2.-bandlarida belgilangan muvofiq talablariga ko’ra jismoniy shaxs.
- 1.5.** Aksiya ishtirokchilari – birgalikda nomlanadigan Jo’natuvchi va Oluvchi.
- 1.6.** Aksiya o’tkaziladigan hudud: O’zbekiston Respublikasi.
- 1.7.** Aksiya o’tkaziladigan muddat yangi tahrirda: 08.07.2022 dan to bekor qilinguniga qadar, muddatsiz.

## **2. Aksiyaning bayoni**

- 2.1.** Aksiya o’tkazilishi va quyida ko’rsatilgan shartlariga amal qilish davrida Jo’natuvchi o’zining Keshbek-hisobidan 1000 dan 5000 gacha bonus UZS Qabul qilib oluvchilarga jo’natishi va o’z Keshbek-hisobiga jo’natgan bonus UZS miqdorini ikki karra ko’proq qilib olishi mumkin.
- 2.2.** Qabul qilib oluvchiga qo’yiladigan talablar:
  - 2.2.1.** Aksiyada ishtirok etish davrida Qabul qilib Oluvchi Humans abonentlari qatoriga kirmaydi va uning telefon raqami +998 33 dan boshlanmaydi raqam Humans raqamlash resursiga taalluqli emas).

**2.2.2.** Bitta qabul qilib Oluvchi Aksiyada faqat bir marta ishtirok etishi mumkin: Qabul qilib oluvchi mazkur Aksiyada avval ishtirok etmagan, boshqa

Jo'natuvchilardan Kod olmagan va boshqa Koddan foydalanmagan. Qabul qilib oluvchi mazkur Aksiyasi doirasida UZS bonuslarni olmagan.

Agar Qabul qilib oluvchi bunga qadar Aksiyada ishtirok etgan bo'lsa, Jo'natuvchiga Qabul qilib oluvchiga o'tkazgan bonusli UZS qaytariladi.

### **2.3. Ishtirokchilar faoliyat tartibi:**

**2.3.1.** Jo'natuvchi Humansning Mobil ilovasiga kiradi va unda Qabul qilib oluvchi telefon raqamini ko'rsatadi;

**2.3.2.** Qabul qilib oluvchiga ko'rsatilgan raqamga Kodi bilan SMS-xabar jo'natiladi;

**2.3.3.** Qabul qilib oluvchi Kod olgan vaqtidan boshlab uch kun ichida Humans savdo va xizmat ko'rsatish nuqtasiga Kodni ko'rsatib, murojaat qiladi;

**2.3.4.** Qabul qilib oluvchi Humans aloqa xizmatlari ko'rsatilishi uchun shartnoma tuzadi;

**2.3.5.** Qabul qilib oluvchi HUMANS.uz Mobil ilovasida ro'yxatdan o'tadi va Humans SIMkartasini faollashtiradi.

**2.4.** 2.3.-bandida belgilangan amallar Ishtirokchilar tarafidan bajarilganda, Humans Qabul qilib oluvchi hisobidagi Keshbekka Jo'natuvchi tomonidan yuborilgan bonus UZSlarini o'tkazadi, Jo'natuvchi esa jo'natgan bonus mablag'larini ikki karra ziyodini o'z Keshbekhisobiga oladi.

**2.5.** Agar Qabul qiluvchi bir taqvim oyi davomida dasturda ishtirok etmasa, Jo'natuvchiga bonus UZS qaytib kelishi mumkin.

**2.6.** Mazkur Aksiyada qatnashgan ishtirokchilar Humans Sodiqlik Dasturiga binoan Humans tomonidan o'tkaziladigan boshqa Aksiyalarda ishtirok etishga haqli.

**2.7.** Humans sodiqlik Dasturi shartlariga muvofiq qat'iy ravishda Ishtirokchilar olgan Bonuslarini qo'llashlari mumkin, ammo Bonuslarni mablag' ko'rinishida olish huquqiga ega emaslar.

## **3. Yakuniy qoidalar**

**3.1.** Mazkur Qoidalar Humans Saytida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Humans bir yoqlama tartibda Saytda tegishli axborotni joylashtirish to'g'risida ma'lum qilib mazkur Qoidalarni o'zgartirish yoki bekor qilish huquqiga ega. Saytda tegishli axborot e'lon qilinishi muddati ma'lum qilish muddati sanaladi.

**3.2.** Qoidalarning 2-bo'limaldi qayd etilgan amallarning Ishtirokchilar tarafidan bajarilishi jismoniy shaxslarga yo'naltirilgan bitim Qoidalari bilan to'liq va qat'iy roziligini anglatadi.

**3.3.** Mazkur Qoidalarda qayd etilmagan boshqa holatlar uchun Humans Sodiqlik Dasturi Qoidalari amal qiladi.